

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOJIKISTON DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



SIMON KARIMOV NOMIDASI
TOJIKISTON DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI
TDTU

TOJIKISTON DAVLAT VOKZAL ACADEMICHESKIY
TEKHNICHESKIY UNIVERSITET
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
1991

TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
INSTITUTI
1991

TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991
UZBEK POLYTECHNIC INSTITUTE



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekomunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umakulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahov Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Нельматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Фанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abdurahim Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budgetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamjanova	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
.....	251
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilhomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	



QIMMATLI QOG'OLAR BOZORIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti

Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori ta'lif

yo'nalishi KM&QM-27 guruhi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda kapital bozorining asosiy risk turlari – bozor riski, kredit riski, likvidlik riski, operatsion va sistematik risklar – har biri alohida o'rganilib, ularni aniqlash, baholash va samarali boshqarish usullari yoritilgan. O'zbekiston sharoitida ushbu risklarni boshqarishda mavjud institutsional, texnologik va tashkiliy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan. Ilmiy maqolada O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining barqarorligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va bozor infratuzilmasini kuchaytirish yo'nalishidagi amaliy taviyalar ham ligari suriladi. Tadqiqot natijalari milliy moliyaviy tizimda xavfsizlik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar, risklarni boshqarish, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, blokcheyn, moliyaviy monitoring.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the issues of improving risk management practices in the securities market. The study examines the main types of capital market risks – market risk, credit risk, liquidity risk, operational and systematic risks – each separately, and discusses methods for identifying, assessing and effectively managing them. In the conditions of Uzbekistan, institutional, technological and organizational problems in managing these risks are identified, and specific proposals are developed to eliminate them. The scientific article also puts forward practical recommendations to increase the stability of the Uzbek securities market, strengthen investor confidence and strengthen market infrastructure. The results of the study serve to ensure security and efficiency in the national financial system.

Keywords: securities, risk management, digital technologies, artificial intelligence, blockchain, financial monitoring.

Аннотация: В данной статье дается глубокий анализ вопросов совершенствования практики управления рисками на рынке ценных бумаг. В исследовании рассматриваются основные виды рисков рынка капитала – рыночный риск, кредитный риск, риск ликвидности, операционный и систематический риски – каждый в отдельности, а также обсуждаются методы их выявления, оценки и эффективного управления. В условиях Узбекистана выявляются институциональные, технологические и организационные проблемы в управлении данными рисками, а также разрабатываются конкретные предложения по их устранению. В научной статье также выдвигаются практические рекомендации по повышению устойчивости узбекского рынка ценных бумаг, укреплению доверия инвесторов и укреплению рыночной инфраструктуры. Результаты исследования служат обеспечению безопасности и эффективности в национальной финансовой системе.

Ключевые слова: ценные бумаги, управление рисками, цифровые технологии, искусственный интеллект, блокчейн, финансовый мониторинг.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog'ozlar bozori moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu bozor investitsiya resurslarini jalb qilish, ularni samarali taqsimlash va iqtisodiyotni moliyalashtirishda muhim rol o'yynaydi. Qimmatli qog'ozlar bozori orqali korxonalar o'z faoliyatini kengaytirish, yangi loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozori doimo muayyan xavf-xatarlar, ya'ni risklar bilan bog'liq bo'ladi. Risklarni boshqarish esa qimmatli qog'ozlar bozorining barqarorligi va ishonchlilikini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bozor mexanizmlarining murakkablashuvi, investorlar sonining ortib borishi, xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuv kabi omillar risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirishni talab qilmoqda. Zamonaliv yondashuvlar, raqamlashtirish, ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish orqali mavjud amaliyotni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.



Qimmatli qog'ozlar bozorida yuzaga keladigan risklar turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi va har biri bozor ishtirokchilari — investorlar, emitentlar, brokerlik firmalari va regulatorlar uchun o'ziga xos xavf darajasi va oqibatlarga ega. Bu risklar nafaqat moliyaviy yo'qotishlar, balki bozorning likvidligi, ishonchliligi va barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir risk turi — bozor riski, kredit riski, likvidlik riski — o'zining yuzaga kelish mexanizmi va boshqaruv usullariga ega bo'lib, ularni aniqlash, tahlil qilish va minimallashtirish moliyaviy tizim ishtirokchilari uchun muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Jumladan, bozor risklari — bu qimmatli qog'ozlar narxining makroiqtisodiy omillar, xususan, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, valyuta kursi, siyosiy beqarorlik yoki iqtisodiy o'sish sur'atlari kabi omillar ta'sirida o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlardir. Bu turdag'i risklar investorlar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va aktivlarning umumiy qiymatini pasaytirishi mumkin.

Kredit risklari esa qimmatli qog'ozlar emitentlarining o'z qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaslik xavfi bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa, obligatsiyalar va boshqa qarz instrumentlari bozorida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu risk turining ortishi investorlar ishonchiga salbiy ta'sir qiladi va bozordagi likvidlikni pasaytiradi.

Likvidlik riski investor qimmatli qog'ozlarni qisqa vaqt ichida adolatli (bozor) narxda sotish imkoniyatidan mahrum bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Bunday risk, ayniqsa, kam faoliyk bilan harakat qiluvchi bozor segmentlarida dolzarbdir. Bundan tashqari, siyosiy va huquqiy xavflar, shuningdek, texnologik va operatsion risklar ham mavjud bo'lib, ular axborot tizimlari, raqamli infratuzilma va korporativ boshqaruvning zaifligi bilan bog'liq bo'ladi.

Ushbu risklarning har biri moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi, investorlarning qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, risklarni aniqlash, baholash va samarali boshqarish bugungi kunda nafaqat alohida kompaniyalar, balki umuman olganda milliy moliya bozorining barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Aynan shunday sharoitda, qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-iijtimoiy muammoga aylanmoqda. Ushbu maqola ana shu muammolarning nazariy asoslari va amaliy yechimlarini yoritishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bozorida mavjud risklarni boshqarish yuzasidan bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, P.Jorion[2] fundamental asarida moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy vositalaridan biri — Value at Risk (VaR) konsepsiysi atroficha yoritiladi. Jorion qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari uchun VaR modelining afzalliklari, xatolik ehtimolini hisoblash va tavakkal darajasini baholash bo'yicha misollar orqali amaliy yondashuvni taqdim etadi. Kitob banklar, fond birjalar va institutsional investorlar uchun tavakkalni kamaytirish usullarining zamonaviy tahlilidir.

J.Hull[3] moliyaviy institutlar uchun xos bo'lgan risk turlari — bozor, kredit, operatsion va likvidlik risklarni atroficha tahlil qilgan. Qimmatli qog'ozlar bozorida bu xavflarni real vaqt rejimida aniqlash, baholash va ularni minimallashtirish bo'yicha yondashuvlar taklif etiladi. Asarda derivativlar, murakkab moliyaviy instrumentlar va ularning risklarga ta'siri alohida ko'rib chiqiladi.

Portfel nazariyasining asoschisi bo'lgan H.Markowitz[4] maqolasida aktivlarni diversifikatsiya qilish orqali umumiy riskni kamaytirish mexanizmini ilmiy asoslaydi. Qimmatli qog'ozlar portfelini tuzishda optimal muvozanatga erishish — xavf va daromad o'ttasida balans topish orqali, investorlar o'z investitsion strategiyalarini takomillashtirishi mumkin. Bu yondashuv risklarni kamaytirishda asosiy nazariy model hisoblanadi.

CAPM modeli asoschisi W.Sharpe[5] aktivlarning narxlari va ularga bog'liq bo'lgan risklarni tushunishda yangi paradigma yarattdi. Model investor kutayotgan daromad va bozor risklari o'ttasidagi bog'liqlikni tushun-tiradi. Bu yondashuv, ayniqsa fond bozorlarida aktivlar bahosining adolatli darajada shakllanishini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

F.Fabozzi va hamkasblari[6] tadqiqotida moliyaviy institutlar va qimmatli qog'ozlar bozori tuzilmalari haqida keng ma'lumot beradi. Asarda risklarni o'lchashda ishlatiladigan vositalar, moliyaviy instrumentlarning murakkabligi va nazorat mexanizmlarining ahamiyati chuqur yoritilgan. Risklarni tahlil qilish va ularni samarali boshqarish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Muallif S.G'ulomov[7] O'zbekiston sharoitida qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va investorlar xavfsizligini ta'minlashda mavjud risklar, qonunchilikdagi bo'shlqlar va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib bergen. Ayniqsa, axborot shaffofligi va moliyaviy monitoring mexanizmlarining kuchaytirilishi bozor barqarorligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan.

S.Tavakkalov[8]ning maqolasida O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi asosiy xavflar turlari, ularning kelib chiqish sabablari va tahlil usullari yoritilgan. Shuningdek, bozor ishtirokchilari uchun moliyaviy xavflarni boshqarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, nazorat tizimlarini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Basel II[9]talablariga ko'ra, risklarni aniqlash, kapital yetarlilikini ta'minlash va nazorat mexanizmlarini



qo'llash orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash mumkin. Ushbu xalqaro standart investorlar va qimmatli qog'ozlar bilan ishlovchi kompaniyalar uchun xavfga chidamli kapital strukturasini shakllantirishga xizmat qiladi.

B.Bekchanov va M.Yakubov[10] maqlasida O'zbekistondagi qimmatli qog'ozlar bozorida mavjud bo'lgan asosiy moliyaviy, operatsion va likvidlikka oid xatarlar tahlil qilinadi. Mualliflar risklarni aniqlash, baholash va minimallashtirish uchun zamonaviy yondashuvlar, jumladan Value-at-Risk (VaR) va stress-test metodologiyalarini qo'llashni taklif qiladilar. Shuningdek, maqolada korporativ emitentlar va investorlarga aloqador ma'lumotlarning ochiqligi pastligi tizimli xatarni oshirishi ta'kidlanadi. Risklarni boshqarishda regulatorlarning monitoring roli ham chuqur tahlil qilinadi.

M.Aliyev[11] o'z tadqiqotida qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining – brokerlar, dilerlar, va investitsiya kompaniyalarining – risklarni boshqarishdagi institutsional roli va mas'uliyatini o'rganadi. U, xususan, moliyaviy vositalar diversifikatsiyasi, portfel boshqaruvi va sug'urta mexanizmlari orqali risklarni kamaytirish strategiyalarini taklif etadi. Muallif riskni boshqarish tizimining markazlashmagan va noyetarli avtomatlashtirilganligi xatarlarni kuchaytirayotgan omillardan ekanini ko'rsatadi.

D.Tadjibayeva[12] o'z maqlasida xatarlarni aniqlash (identifikasiya) bosqichini samarali boshqaruv tizimining asosiy elementida ko'rib chiqadi. U xatar turlarining tasnifi, shu jumladan, sistematik va no-sistematisk risklarning bozor kontekstida qanday yuzaga chiqishi va qanday baholanishi kerakligini tahlil qiladi. Muallifga ko'ra, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari uchun standartlashtirilgan risk-reyting tizimlarini joriy etish, boshqaruvni avtomatlashtirish va AKT texnologiyalarini keng tatbiq etish dolzarb vazifadir.

IOSCO[13] xalqaro hisobotida global qimmatli qog'ozlar bozorida yuzaga kelayotgan yangi xatarlar, xususan, raqamli aktivlar, iqlimga oid moliyaviy risklar va kiberxavfsizlik xatarlarini muhokama qiladi. IOSCO tomonidan tavsiya etilgan risk monitoringi mexanizmlari, shu jumladan regulatorlarning "proaktiv" yondashuv va bozor ishtirokchilarining xabardorligini oshirish bo'yicha choralar, O'zbekiston sharoitida ham muhim nazariy va amaliy asoslar sifatida xizmat qiladi. Bozor barqarorligini ta'minlash uchun institutsional hamkorlik zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Mualliflar Z.Raximova va D.Nabihev[14] statistik va matematik modellar – regressiya tahlili, Monte Carlo simulyatsiyasi, va ehtimollik taqsimotlari – yordamida risklarni bashoratlash va ularga qarshi oldindan chora ko'rish mexanizmlarini taklif qiladilar. Tadqiqotda real ma'lumotlar asosida bozor narxlari o'zgaruvchanligi tahlil qilinib, ushbu yondashuvlar orqali portfel riskini minimallashtirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. O'zbekiston fond bozorida bu kabi modellashtirish amaliyotining joriy etilishi xatarni boshqarish sifatini keskin oshirishiga e'tibor qaratilgan.

Sh.Sharifxo'jayev[15] maqlasida moliyaviy xavflarni boshqarish bo'yicha zamonaviy konsepsiyalarni yoritib beradi. Jumladan, kredit, likvidlik va valyuta risklarining milliy fond bozoridagi ta'siri statistik tahlillar asosida baholangan. Muallif O'zbekistonda risklarni baholash usullarini takomillashtirish uchun korporativ risk menejment tizimlarini joriy etish zarurligini asoslab bergen. Shuningdek, xalqaro amaliyotga asoslangan holda samarali risklarni kamaytirish strategiyalari taklif qilingan.

Maqlada mualliflar Q.Abdurahmonov va I.Nasirov[16] kapital bozoridagi risklar tahlilini investitsiyaviy faoliyk, moliyaviy institutsional islohotlar va texnologik omillar bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi. Ayniqsa, blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalarining risklarni prognozlash va ularni boshqarishdagi roli alohida ta'kidlanadi. Mualliflar O'zbekiston sharoitida mavjud risklarni minimallashtirish uchun xalqaro standartlarga mos risk menejment tizimlarini joriy etishni taklif qiladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirishda zamonaviy ilmiy yondashuvlarga asoslangan metodologik asoslar keng qo'llanildi. Avvalo, mavzuni chuqur o'rganish va muammoning dolzarbligini aniqlash maqsadida kuzatish va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahliliy bosqichda esa guruhash, taqqoslash, sintez va mantiqiy tahlil kabi metodlar orqali bozor ishtirokchilarining faoliyati, risk turlari va ularni boshqarish mexanizmlari o'rtafiga o'zaro bog'liqliklar aniqlab berildi. Xususan, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasining qiyosiy tahlili asosida mavjud farqlar va imkoniyatlarni baholandi. Shuningdek, empirik ma'lumotlarga asoslangan kontent-tahlil usuli yordamida so'nggi yillarda e'lon qilingan statistika, qonunchilik hujjalari va moliyaviy hisobotlar tahlil qilindi. Metodologik yondashuvlarning kombinatsiyasi orqali tadqiqotning aniqligi, ishonchliligi va amaliy ahamiyati ta'minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish sohasida bosqichma-bosqich islohotlar olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar orasida qonunchilik asoslarini mustahkamlash, ichki audit tizimini shakllantirish, diversifikatsiyalash, sug'urta elementlaridan foydalanish va investorlar



manfaatlarini himoya qilish kabi yo'nalishlar mavjud. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'RQ-387-son¹ Qonuni, shuningdek, unga mos qabul qilingan qonunosti hujjatlar ushbu jarayonning me'yoriy-huquqiy asosini belgilab bermoqda. Aynan ushbu huquqiy bazaning mavjudligi sohani barqaror rivojlantirish va ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qilm-oqda. Mamlakatda risklarni aniqlash va baholash bo'yicha ichki nazorat tizimlari ham shakllanmoqda. Masalan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi mutasaddi organlar tomonidan risklarni boshqarishga doir treninglar va seminarlar muntazam o'tkazilib, amaliy ko'nikmalar mustahkamlanmoqda. Shuningdek, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilinayotgan statistik axborotlar qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatni tahlil qilish imkonini bermoqda. Ushbu axborotlar asosida risklarni baholash, bozordagi holatni monitoring qilish va investorlar faoliyatiga oid qarorlar qabul qilish osonlashmoqda.

Yuqoridagi jarayonlar bilan bir qatorda, xalqaro amaliyot ham diqqat bilan o'rganilmoqda. Masalan, AQSh moliya bozorlarida blokcheyn texnologiyasidan keng foydalanish yo'lga qo'yilgan. Ular blokcheyn asosida shaf-fof va xavfsiz tranzaksiyalarni amalga oshirish orqali firibgarlik va noto'g'ri ma'lumotlarning oldini olishga katta e'tibor berishadi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi Yevropa davlatlarida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) tahlilini qo'llab, risklarni real vaqt rejimida monitoring qilish tizimlari keng joriy etil-gan. Bu davlatlar moliyaviy institutlari va regulatorlari yuqori tezlikda ma'lumotlarni qayta ishlash orqali bozor o'zgarishlariga tez moslashadi hamda potensial xavflarni oldindan aniqlash imkoniga ega.

Shuningdek, Singapur moliya sektori raqamli innovatsiyalarni qabul qilish va amalga oshirishda yetakchi hisoblanadi. Singapur moliya bozorida blokcheyn, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan risk boshqarish platformarini faol joriy etish orqali investitsiya jarayonlarini samarali va xavfsiz qilishga e'tibor qaratmoqda. Investorlar manfaatlarini himoya qilish masalasi ham jahon tajribasida markaziy o'rinni egallaydi. Misol uchun, ko'plab davlatlarda investorlarni kompensatsiya qilish fondlari, sug'urta mexanizmlari va nizolarni hal etish bo'yicha maxsus platformalar mayjud. Bu kabi yondashuvlar bozor ishtirokchilarining ishonchini oshirish bilan birga, umumiyl moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlarda qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish maxsus tizimlar, tahliliy dasturlar va qat'iy nazorat organlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda ham bugungi kunda fond bozoridagi xavflarni kamaytirish va investorlar huquqlarini himoya qilish choralar takomillashtirilmoqda. Shu maqsadda mamlakatda axborot shaffofigini oshirish, moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish va tartibga soluvchi institutlarni kuchaytirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Quyidagi jadvalda xorijiy mamlakatlar qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish yuzasidan amalga oshirilayotgan asosiy yondashuvlarning tahlili amalga oshirilgan.(1-jadval).

1-jadval:Rivojlangan davlatlarning qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyoti²

Davlat	Qo'llanilayotgan texnologiya/ metodlar	Asosiy yondashuvlar	Qamrab olish darajasi
Singapur	FinTech, Blokcheyn, AI	Tahliliy platformalar va raqamli reguliyatsiya	O'ta yuqori
AQSh	Blokcheyn, AI (sun'iy intellekt)	Avtomatik risk baholash, regulatorlar orqali qat'iy monitoring	Yuqori
Germaniya	Big Data, real-time monitoring	Sun'iy intellekt asosida monitoring, investorlarni sug'urta qilish	Yuqori
Buyuk Britaniya	Raqamli audit tizimlari	Moliyaviy institutlar orqali xavflarni segmentlash	Yuqori
Yaponiya	Raqamlashtirish + an'anaviy metodlar	Qonunchilik bazasini raqamli tizimlarga moslashtirish	O'rtacha-yuqori

1-jadvalda aks ettirilgan ma'lumotlar rivojlangan mamlakatlarning qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish borasida qanday texnologik va institutsional yondashuvlarni qo'llayotganini ko'rsatadi. E'tiborli jihatni shundaki, barcha mamlakatlar o'z iqtisodiy va huquqiy infratuzilmasiga mos ravishda texnologiyalarni uyg'un-


1 <https://lex.uz/docs/-2662539>

2 Muallif tomonidan tayyorlandi.



lashtirgan. Masalan, Singapur eng ilg'or va keng qamrovli yondashuvlarga ega bo'lib, FinTech, blokcheyn va sun'iy intellekt asosida faoliyat yurituvchi tahliliy platformalarni joriy etgan. Bu esa uning raqamli reguliyatsiyani chuqur shakllantirganligini ko'rsatadi. AQSh va Germaniya kabi yirik moliyaviy markazlar avtomatik monitoring va ma'lumotlar tahlilini keng qo'llab, yuqori aniqlikdagi risk baholashni ta'minlamoqda. Buyuk Britaniya esa institutsiyal risklarni ajratib tahlil qilish orqali aniq va tizimli yondashuvni afzal ko'radi. Yaponiya tajribasi esa ehtiyyotkorlik bilan raqamlashtirishga o'tish orqali qonunchilik moslashuvchanligini ta'minlaydi. Bu davlatlar tajribasi O'zbekistonda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishda amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda va zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llash imkoniyatlarini namoyish etadi.

Innovatsion yondashuvlardan yana biri bu – elektron monitoring va audit tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etishdir. Bu orqali reguliyator organlar kompaniyalar faoliyatini doimiy kuzatib boradi, shuningdek, bozor segmentlarida riskning dinamikasini nazorat qiladi. Shuningdek, raqamli identifikasiya, aqli kontraktlar (smart contracts), moliyaviy texnologiyalarga asoslangan platformalar (FinTech) ham xavflarni nazorat qilishda keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, smart-kontraktlar sharhnomalar ijrosini avtomatlashirib, bahsli holatlar va kechikishlar ehtimolini kamaytiradi. Bu kabi raqamli yechimlar nafaqat risklarni kamaytiradi, balki butun bozor ishtirokchilari o'tasida ishonchni mustahkamlaydi. Shuningdek, ular orqali investitsiya muhiti barqarorligi ta'milanadi. O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishda ilgari surilayotgan islohotlar – masalan, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish strategiyasi – aynan shu innovatsion yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilm-oqda (1-rasm).



1-rasm: Raqamli texnologiyalar joriy etilishi orqali risklarni kamaytirish darajasi.³

1-rasmda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi orqali xavflarni kamaytirishdagi samaradorlik darajalari ko'rsatilgan. Rasmga ko'ra, eng katta ulush — 35% — risklarni avtomatik aniqlash tizimlariga to'g'ri keladi. Bu esa, tashkilotlar uchun xavflarni oldindan aniqlab, tezkor choralar ko'rishda bu texnologiyalar muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Keyingi o'rinda ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt turibdi (30%). Bu texnologiyalar muhim qarorlarni qabul qilishda katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilish imkonini beradi. Blokcheyn texnologiyasi 20% ulush bilan uchinchi o'rinda, u ayniqsa ma'lumotlar xavfsizligi va shaffoflikni ta'minlashda foydalidir. Elektron monitoring va audit texnologiyalari 10% ulushni egallagan bo'lsa, boshqa texnologiyalar atigi 5% ni tashkil qilgan. Bu esa asosiy ishonch aynan ilg'or va keng qo'llanilayotgan texnologiyalarga qaratilganini anglatadi. Tahlillar asosida ko'rinish turibdiki, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va blokcheyn eng samarali xavf kamaytiruvchi vositalar sifatida tan olinmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyoti bugungi tez o'zgaruv-chan iqtisodiy sharoitda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, samarali boshqaruv usullari risklarning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar — sun'iy intellekt, blokcheyn, elektron monitoring tizimlari kabi innovatsion yondashuvlar xavflarni erta aniqlash va tezkor javob choralarini ko'rishda yuqori natija bermoqda. O'zbekiston tajribasida ham bu yo'nalishda amaliy qadamlar qo'yilmoqda. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish va bozor shaffofligini

³ Muallif ishlansasi.



kuchaytirishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jahon tajribasi asosida aytish mumkinki, raqamli transformatsiya va huquqiy moslashuvchanlik vositalari asosida risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish orqali milliy bozor raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin.

O'tkazgan tahlillarimiz asosida quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

Risklarni erta aniqlash tizimlarini joriy etish kerak. Qimmatli qog'ozlar bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni prognozlash uchun sun'iy intellekt asosida ishlovchi avtomatlashtirilgan monitoring platformalarini joriy etish zarur. Bu investorlar va regulatorlarga tezkor javob choralari ko'rish imkonini beradi.

Moliyaviy savodxonlik va xatarlar bo'yicha axborot ochiqligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor ishtirokchilari, xususan, yirik va kichik investorlar uchun risklar to'g'risida doimiy axborot berib boruvchi raqamli portal va mobil ilovalarni ishlab chiqish foydalidir. Bu ommaviy axborot shaffofligini oshirib, investitsion muhitga ishonchni mustahkamlaydi.

Normativ-huquqiy bazani innovatsion risklarni hisobga olgan holda takomillashtirish muhim. Blokcheyn texnologiyasi, tokenizatsiya va boshqa raqamli aktivlar bilan bog'liq risklarni tartibga soluvchi aniq me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa milliy bozorni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan takliflarni amaliyatga tatbiq qilish orqali fond bozorida risklarni nazorat qilish yuzasidan ijobji samaraga erishish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'RQ-387-son Qonuni <https://lex.uz/docs/-2662539>.
2. Jorion, P. (2007). Value at Risk: The New Benchmark for Managing Financial Risk. McGraw-Hill.
3. Hull, J. (2015). Risk Management and Financial Institutions. Wiley.
4. Markowitz, H. (1952). Portfolio Selection. Journal of Finance.
5. Sharpe, W.F. (1964). Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk. Journal of Finance.
6. Fabozzi, F. J., Modigliani, F., Jones, F. J. (2013). Foundations of Financial Markets and Institutions. Pearson.
7. G'ulomov, S. S. (2019). Qimmatli qog'ozlar bozorida investor xavfsizligini ta'minlash. "Moliyaviy tahlil" jurnali, №2, 60–68.
8. Tavakkalov, S. (2021). Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni kamaytirish mexanizmlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №3, 45–52.
9. Basel Committee on Banking Supervision (2004). International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: A Revised Framework (Basel II).
10. Bekchanov, B. & Yakubov, M. (2021). "Risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari: Qimmatli qog'ozlar bozori misoldida." – Moliyaviy Tahlil Jurnali, 4(2), 37–49.
11. Aliyev, M. (2020). "Qimmatli qog'ozlar bozorida xatarlarni boshqarishning institutsional asoslari." – Iqtisodiy Islohotlar Ilmiy Nashri, 6(1), 55–67.
12. Tadjibayeva, D. (2021). "Finans bozorida xatarlarni identifikatsiyalash va ularni boshqarish mexanizmlarining rivojlanishi." – O'zbekiston Iqtisodiyoti va Moliyasi Jurnali, 2(4), 78–89.
13. International Organization of Securities Commissions (IOSCO) (2020). "Risk Outlook: Navigating Emerging Risks in Global Securities Markets."
14. Rakhimova, Z. & Nabiev, D. (2022). "Qimmatli qog'ozlar bozori risklarini baholashda statistik modellashtirishdan foy-dalanish samaradorligi." – Statistika va Tahlil Ilmiy Nashri, 3(2), 45–57.
15. Sharifxo'jayev, Sh. (2021). "Moliyaviy bozorlarda risklarni boshqarish mexanizmlari" // Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 3(2).
16. Abdurahmonov, Q. X., & Nasirov, I. I. (2020). "Kapital bozorlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar" // Moliyaviy tahlil jurnali, 4(1).
17. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. — www.stat.uz
18. Jahon banki (World Bank) hisobotlari va raqamli transformatsiya bo'yicha tahlillar. — www.worldbank.org
19. Financial Stability Board (FSB) risk monitoring va moliyaviy infratuzilma bo'yicha hisobotlari. — www.fsb.org
20. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) moliyaviy barqarorlik hisobotlari. — www.imf.org

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100